

Kafedra mudiri:

## Nosirov Xabibullo Xikmatullo o'g'li

**Qabul vaqti:**Dushanba-Juma (14.00-16.00)

**Telefon:**(0 371) 238-64-84

**E-mail:**kh.nosirov@tuit.uz

### Kafedra tarixi

"Teleradioeshittirish tizimlari" kafedrasida 2010 yil 3 sentabrda "Antenna-fider qurilmalari" hamda "Televidenie va radioeshittirish" kafedralarining birlashishi natijasida tashkil etilgan.

"Antenna - fider qurilmalari" kafedrasiga (avvalgi Texnik elektrodinamika va antennalar) 1965 yilda "Radioaloqa va radioeshittirish" fakulteti tarkibida "Elektrotexnikaning nazariy asoslari" va "Radiotexnikaning nazariy asoslari" kafedralarining qayta tashkil etilishi natijasida asos solingan. Dastlab kafedra texnika fanlari nomzodi, dotsent Likonsev Nikolay Nikolaevich rahbarligi ostida faoliyatini boshlagan. U kafedrada elektrodinamika va antenna-fider qurilmalari o'quv - texnik laboratoriyalarini tashkil etishda, o'quv-uslubiy qo'llanmalarni chop etishda katta hissa qo'shgan.

Keyinchalik 1967-1979 yillarda O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent Tsitovich Petr Aleksandrovich, 1979-1989 yillarda texnika fanlari nomzodi, dotsent Bezkakotova Tatyana Borisovna, 1988-2003 yillarda texnika fanlari nomzodi, dotsent Gabzalilov Galiy Faxretdinovich, 2003-2010 yillarda texnika fanlari nomzodi, dotsent Likonsev Dmitriy Nikolaevichlar kafedra mudir lavozimida faoliyat ko'rsatganlar. Bu davr oralig'ida kafedrada texnika fanlari nomzodi, dotsent Gan Svetlana Pavlovna, texnika fanlari nomzodi, dotsent Serova Galina Sergeevna, texnika fanlari nomzodi Solovev Evgeniy Vitalevich, o'qituvchilar Smirnov Aleksandr Borisovich, Rusinkevich Zoya Edmundovna, Bitkov Vladimir Abramovichlar faoliyat yuritganlar.

Professor - o'qituvchilarning tinimsiz izlanishlari natijasida: antenna-fider qurilmalarini qurish, fazalashirilgan antenna panjaralarini loyihalash, mavjud televizion antennalarning yo'nalganlik diagrammalarini korrektsiyalash, yirik shahar sharoitida radioto'lqinlarning tarqalish xususiyatlarini tadqiq etish, radio va televizion eshittirish zonalarini hisoblash, radioob'ektlarning ekologik pasportlarini tayyorlash bo'yicha amaliy va ilmiy ishlar olib borilgan. O'quv jarayoni uchun virtual va amaliy laboratoriya maketlari tayyorlangan va talabalarga taqdim etilgan.

Kafedrada O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi, professor D.A.Abdullaev rahbarligi ostida "Onkologik kasalliklarni davolashda qo'llash uchun mo'ljallangan tana to'qimalarini yo'naltirilgan nurlar yordamida qizituvchi (gipertermiya) laboratoriya qurilmasi" yaratilgan va unga mualliflik guvohnomasi olingan. Kafedra ko'p yillik ta'lim faoliyati va ilmiy-tadqiqot davomida (kunduzgi va sirtqi bo'limlarda) mingdan ortiq muxandislarni-mutaxassislarni tayyorlagan. Bu mutaxassislar hozirda O'zbekiston Respublikasi, O'rta Osiyo Respublikalari va boshqa chet el davlatlarida faoliyat yuritishmoqda.

Uzoq yillar davomida kafedra o'qituvchilari va aspirantlari Sankt-Peterburg davlat telekommunikatsiya universiteti (Rossiya) olimlari bilan hamdo'stlik shartnomasi asosida raqamli radioeshittirish signallarining ko'p nurli tarqalishi va qabul qilinishi xususiyatlarini o'rganish ustida izlanishlar olib bordilar. Bajarilgan ilmiy ishlar natijasida kafedra o'qituvchilari: D.N.Likonsev, V.A.Gubenko, va aspirant Muxammed Buzeyd nomzodlik dissertatsiyalarini himoya qildilar.

So'nggi yillarda "Teleradioeshittirish tizimlari" kafedrasida antenna - fider qurilmalari yo'nalishiga yosh o'qituvchilar U.X. Aripova, A.Sh.Shaxobiddinov, A.R.Yusupova kabi pedagoglar qo'shildilar. Ko'p yillar davomida katta o'qituvchi V.S.Kan samarali faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Kafedrada o'quv jarayonni muvaffaqiyatli tashkil etishda turli yillarda laboratoriya mudirlari: V.N.Vorobev, T.A.Abidjanov, G.Makarenko, G.Gafurov, V.Klimushkin, F.Gafurov, A.M.Ovchinnikovlar samarali mehnat

qilganlar.

Kafedra 2010 yilda "Televidenie va radioeshittirish" nomi ostida "Antenna-fider qurilmalari" kafedrasini birlashtirildi, hamda 2013 yilda "Teleradioeshittirish tizimlari" nomiga o'zgartirildi. So'nggi davr oralig'ida kafedraga texnika fanlari nomzodi, dotsent T.G.Raximov (2008-2011 y.), t.f.n., dotsent V.A.Gubenko (2011-2012 y.), t.f.n., dotsent A.A.Yarmuxamedov (2012-2013 y.), t.f.n., dotsent Z.T.Xakimov (2013-2014 y.), katta o'qituvchi A.Sh.Shaxobiddinov (2013-2014 y.), t.f.n., dotsent X.S.Soatovlar (2014-2017) mudir etib tayinlandilar.

Dotsent T.G.Raximov rahbarligi davrida kafedraning moddiy-texnik bazasi tubdan yangilandi. Kafedraga tegishli bo'lgan barcha auditoriyalar yangidan tashkillashtirildi, zamonaviy multimedia texnikalari bilan ta'minlandi. Magistrlar va iqtidorli talabalar uchun zamonaviy kompyuterlar bilan jihozlangan o'quv xonasi, Sankt-Peterburg shahrida (Rossiya) ishlab chiqarilgan raqamli televidenie laboratoriya stendi bilan jihozlandi va o'quv laboratoriya xonasi tashkil etildi. Aloqa korxonasi va tashkilotlari bilan mustahkam hamkorlik o'rnatildi. Kafedraning professor-o'qituvchilar tarkibi yosh o'qituvchilar bilan to'ldirilgan. X.S.Soatov rahbarligi davrida 2016 yil kafedra professor - o'qituvchisi Raximov B.N. "Методы контроля и диагностики механических свойств конструкции на основе волоконно-оптических систем связи" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi.

2017 yildan texnika fanlari doktori, dotsent Raximov Baxtiyor Ne'matovich "Teleradioeshittirish tizimlari" kafedrasini mudiri lavozimida faoliyat yuritib kelmoqda. B.Raximov Toshkent axborot texnologiyalari universiteti dekan muovini lavozimida faoliyat ko'rsatgan. Hozirgi kunda Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Yosh olimlar kengashi raisi sifatida ham faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

## KAFEDRADA O'QITILADIGAN FANLAR

### Bakalavriat:

- "Radioto'lqinlar tarqalishi va antenna-fider qurilmalari"
- "Elektromagnitizm"
- "Televidenie"
- "Audio va video signallarga raqamli ishlov berish"
- "Raqamli televidenie"
- "Audio video signallarga raqamli ishlov berish"
- "Radioeshittirish"
- "Simsiz aloqa tizimlarida antenna va to'lqinlar tarqalishi"
- "Elektromagnit maydonlar va to'lqinlar"

### Magistratura:

- Amaliy televideniye tizimlari
- Audio video signallarni kodlash tizimlari
- "Uch o'lchamli televidenie"
- "Elektroakustika asoslari"

## Kafedra professor o'qituvchilari

- Raximov B.N. - kafedra mudiri, t.f.d., dotsent
- Raximov T.G. - t.f.n., professor
- Gubenko V.A. - t.f.n. dotsent
- Gavrilov I.A. - t.f.n., dotsent

- Kan V.S. – katta o‘qituvchi
- Shaxobiddinov A.Sh. – katta o‘qituvchi
- Aripova U.X. – katta o‘qituvchi
- Axmedova A.X. – katta o‘qituvchi
- Gaziev X.G. – assistent
- Yusupova A.R. – assistent
- Umarov U.A. – assistent
- Berdiev A.A. – assistent
- Sultonova D.E. – assistent
- Ibragimov D.B. – assistent
- Nosirov X.X. – assistent
- Puziy A.N. – assistent

Kafedrada: Televidenie asoslari, Raqamli televidenie, Elektroakustika, Elektromagnetizm, Antenna-fider qurilmalari laboratoriyalari mavjud.

"Teleradioeshittirish tizimlari" kafedrasiga birlashtirilgan "Televidenie, radioaloqa va radioeshittirish" yo‘nalishi bo‘yicha har yili 200 ga yaqin bakalavr talabalarining bitiruv oldi amaliyoti, ishlab chiqarish amaliyoti va o‘quv amaliyotlari tashkil etiladi. Kafedrada profesor-o‘qituvchilarining rahbarligida 100 ga yaqin bakalavrlilik bitiruv malakaviy hamda 25 ga yaqin magistrlik ilmiy dissertatsiyalari himoya qilinadi.

#### **KAFEDRADA OLIB BORILAYOTGAN ILMIY, ILMIY-USLUBIY ISHLAR**

Hozirgi kunda kafedrada qator dolzarb ilmiy tadqiqotlar va muammoli ilmiy loyihalar amalga oshirilmoqda: "Мобил алоқа тизимлари учун кадрлар аро тасвирга ишлов бериб вейвлет ўзгартириш асосида видеокодекни ишлаб чиқиш", "Создание методик расчета ослабления радиоволн в тоннелях", "Разработка действующей модели радиотехнической безэховой камеры", "Модернизация научно практической лаборатории АФУ", "Разработка технологии совместной установки антенн различных операторов на одной опоре", "Разработка методик оценки качества обслуживания и зон уверенного приема станциями радиоконтроля", "Разработка и создание измерительного стенда для тестирования работоспособности ВОЛС под воздействием окружающей среды", "IP телевидение ва мобил алоқа учун телевизион кодекнинг дастурий таъминотини ишлаб чиқиш".

O‘zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarni rivojlantirish vazirligi tashabbusi bilan an’anaviy tarzda o‘tkazib kelinadigan "Innovatsion g‘oyalar va loyihalar yarmarkasi-2015" da kafedra Toshkent axborot texnologiyalari universiteti nomidan «Antenna-fider qurilmalari» laboratoriyasida yaratilgan «Televidenie, radioeshittirish va aloqa tizimlari uchun antennalar» loyihasi bilan ishtirok etdi. Hozirgi kunda ushbu loyihani amalga oshirish yuzasidan "O‘zbektelekom" AK, hamda "UzDigital TV" korxonasi bilan tegishli ishlar olib borilmoqda.

2014-2015 o‘quv yilining birinchi semestrda kafedraning "Raqamli televidenie" o‘quv xonasida "IP-TV" laboratoriyasi ishga tushirildi.

Kafedra bakalavriyat va magistratura talabalarini tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish maqsadida ishlab chiqqan "Antenna-fider qurilmalari bo‘yicha o‘quv-amaliy laboratoriya" nomli loyiha Vazirlikning Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg‘armasi tomonidan moliyalashtirilmoqda. Kelajakda ushbu laboratoriyada talabalar simsiz telekommunikatsiya tizimlarining antenna-fider qurilmalari bilan ishlashda amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar hamda sun‘iy yo‘ldosh va yer usti raqamli teleeshittirish tizimlari antennalaridan foydalanishni va ularni sozlash usullarini o‘rganadilar.

"Teleradioeshittirish tizimlari" kafedrasining o‘quv-uslubiy bazasi ham yildan-yilga professor-o‘qituvchilar tomonidan chop etilgan darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar bilan boyib bormoqda.

Jumladan, t.f.n., dotsent Sh.Z.Tajiboev muallifligida o‘zbek tilida yaratilgan "Televidenie" darsligi, "Tasvirni

tiklovchi qurilma", "Tasvirni tiklovchi tuzilma", "Zamonaviy telekommunikatsiya atamalari lug'ati" kabi qator o'quv qo'llanmalar yaratilgan.

Kafedra dotsenti M.Z.Zuparov tomonidan oxirgi o'n yillar davomida elektroakustika va radioeshittirish kurslari bo'yicha bir qator darsliklar, o'quv uslubiy qo'llanmalar, ma'ruzalar matni o'zbek va rus tillarida tayyorlangan va chop etilgan. Novosibirsk aloqa va informatika akademiyasi (Rossiya) professori G.P.Katunin bilan hamkorlikda elektroakustikaga oid rus va o'zbek tillaridagi o'quv qo'llanma, elektroakustikaga oid ruscha-o'zbekcha lug'at yaratilgan. T.f.n., dotsent M.Z. Zuparovning yorqin xotirasini yod etgan holda uning muallifligida lotin alifbosida yaratilgan "Elektroakustika va arxitektura akustikasi" nomli darslik 2014 yilda nashrdan chiqarilgan.

2015 yilda t.f.n., professor A.A.Abduazizov va t.f.n., professor T.G.Raximov muallifligidagi "Radiotexnik tizimlar", t.f.n., dotsent D.N.Likonsev va katta o'qituvchi A.Sh.Shaxobiddinov hammualliflikda yaratgan "Radioto'lqinlarning tarqalishi va antenna-fider qurilmalari" nomli o'quv qo'llanmalar chop etilgan. 2016 yilda dotsent X.S.Soatov tahriri ostida I.A.Gavrilov, T.G.Raximov, A.N.Puziy, X.X.Nosirov, SH.M.Kadirovlar muallifligida Raqamli televideniye darsligi 3 ko'rinishda (rus tilida, o'zbek tilida lotin va kiril alifbosida) nashrdan chiqarilgan. Kafedra professor-o'qituvchilaridan A.Sh.Shaxobiddinov, U.X.Aripova, U.A.Umarov, A.N.Puziy, X.X. Nosirovlar doktorlik dissertatsiyasi ustida ilmiy tadqiqot ishlarini davom ettirmoqdalar.

Kafedra dotsenti M.Z.Zuparov tomonidan oxirgi o'n yillar davomida elektroakustika va radioeshittirish kurslari bo'yicha bir qator darsliklar, o'quv uslubiy qo'llanmalar, ma'ruzalar matni o'zbek va rus tillarida tayyorlangan va chop etilgan. Novosibirsk aloqa va informatika akademiyasi (Rossiya) professori G.P.Katunin bilan hamkorlikda elektroakustikaga oid rus va o'zbek tillaridagi o'quv qo'llanma, elektroakustikaga oid ruscha-o'zbekcha lug'at yaratilgan. T.f.n., dotsent M.Z. Zuparovning yorqin xotirasini yod etgan holda uning muallifligida lotin alifbosida yaratilgan "Elektroakustika va arxitektura akustikasi" nomli darslik 2014 yilda nashrdan chiqarilgan.

2015 yilda t.f.n., professor A.A.Abduazizov va t.f.n., professor T.G.Raximov muallifligidagi "Radiotexnik tizimlar", t.f.n., dotsent D.N.Likonsev va katta o'qituvchi A.Sh.Shaxobiddinov hammualliflikda yaratgan "Radioto'lqinlarning tarqalishi va antenna-fider qurilmalari" nomli o'quv qo'llanmalar chop etilgan. X.S.Soatov tahriri ostida "Raqamli televidenie" o'quv qo'llanmasi chop etildi. Kafedra professor-o'qituvchilaridan A.Sh.Shaxobiddinov, U.X.Aripova, U.A.Umarov, A.N.Puziy, X.X. Nosirovlar doktorlik dissertatsiyasi ustida ilmiy tadqiqot ishlarini davom ettirmoqdalar.